



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-fevral

59-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 28-yanvardagi PF–13-son Farmoni, shu haqidagi viloyat hokimining 2025-yil 1-fevraldagi 46-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 28-yanvardagi PF–13-son Farmoni, shu haqidagi viloyat hokimining 2025-yil 1-fevraldagi 46-6-0-Q/25-sonli qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 21¹-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 28-yanvardagi PF–13-son Farmoni, shu haqidagi viloyat hokimining 2025-yil 1-fevraldagi 46-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda–Agentlik) zimmasiga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatilganligi;

biologik faol qo‘shimchalar va kosmetika mahsulotlari sanoatini rivojlantirish, shu jumladan, bozor konyunkturasini o‘rganish, tahlil qilish va ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, ushbu yo‘nalishdagi soha korxonalariga ilg‘or xorijiy amaliyot va standartlarni tatbiq etishga ko‘maklashishi;

mahalliy hokimliklar bilan birgalikda hududiy farmatsevtika korxonalarining investitsiya loyihalarini monitoring qilish va hisobini yuritishi;

farmatsevtika sohasini raqamlashtirish va axborot dasturlarini joriy etishi;

Shunday tartib o‘rnatiladiki, unga muvofiq 2025-yil 1-apreldan boshlab:

a) cheklangan savdo ustamaları faqat retsept bilan beriladigan dori vositalari toifasiga nisbatan tatbiq etilishi.

Bunda;

mahalliy va xorijiy dori vositalariga nisbatan amaldagi referent narxni shakllantirish tizimi saqlab qolinishi;

retsept bilan beriladigan dori vositalari toifasini ulgurji va chakana sotishda ularni yetkazib berishda ishtirok etuvchi vositachilar sonidan qati nazar, ulgurji savdo uchun sotib olingan (bazaviy) qiymatidan 15 foizdan va chakana savdo uchun sotib olingan qiymatidan 20 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda ustama qo‘llanilishi;

Ushbu dori vositalarining ulgurji va chakana narxlari cheklangan ulgurji va chakana referent narxlardan yuqori bo‘lmasligi shartligi;

retseptsiz beriladigan dori vositalarini ulgurji va chakana realizatsiya qilishda cheklangan savdo ustamaları qo‘llanmasligi;

b) bir ishlab chiqaruvchi tomonidan turli savdo nomlari ostida tarkibi bir xil bo‘lgan dori vositalarini ishlab chiqarishda ushbu dori vositalarining barchasiga nisbatan eng past referent narx qo‘llanilishi (dori moddalari (substansiya) ishlab chiqaruvchilarida farq bo‘lgan hollar bundan mustasno);

d) Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi tomonidan xorijiy valyutada qayd etilgan referent narxlar quyidagi hollarda avtomatik ravishda (tadbirkor murojaatisiz) qayta ko‘rib chiqilishi;

xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan qiymati dori vositasiga qayd etilgan oxirgi qiymatdan 3 foiz yuqori bo‘lsa - har yilning yanvar va iyul oylarida;

xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan qiymati dori vositasiga qayd etilgan oxirgi qiymatdan 5 foiz yuqori bo‘lsa-muddatidan avval;

Sog‘liqni saqlash vazirligi (A.Xudayarov) 2025-yil yakuniga qadar Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazining laboratoriyasini Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining dastlabki kvalifikatsiya (prequalification) tartibidan o‘tkazish choralarini ko‘rishi;

farmatsevtika mahsulotlari eksporti hajmini oshirish maqsadida Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan:

a) farmatsevtika korxonalarining barqarorlik reytingidan kelib chiqib:

mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining dori vositalaridan bittasini AQShning “Food and Drug Administration” (FDA) yoki Yevropa Ittifoqining “European Medicines Agency” (EMA) tashkilotlarida ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarining 100 foizi ular ro‘yxatdan o‘tkazilgani to‘g‘risida tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng qoplab berilishi;

mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining farmatsevtika mahsulotlarini xorijiy davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarining 50 foizi ular ro‘yxatdan o‘tkazilgani to‘g‘risida tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng qoplab berilishi;

b) soha korxonalariga farmatsevtika yo‘nalishidagi nufuzli xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda stendlar bilan ishtirok etish xarajatlarini Agentlikning arizasiga muvofiq oldindan 100 foiz to‘lab berish tartibi joriy etilishi;

“Asakabank” AJ va Agentlikning ikki oy muddatda “Asakabank” AJ ta‘sischiligida mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklida ustav fondi 10 million AQSH dollari ekvivalentiga teng bo‘lgan, farmatsevtika sohasining biofarmatsevtika, hujayra texnologiyalari, onkologiya kabi

yoʻnalishlaridagi startap loyihalarni moliyalashtiriladigan venchur jamgʻarmasini tashkil etish toʻgʻrisidagi taklifga rozilik berilganligi;

Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi, “Asakabank” AJ va Agentlik “Asakabank” AJ huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda Farmatsevtika tarmogʻining istiqbolli loyihalari investitsiya jamgʻarmasini (keyingi oʻrinda – Investitsiya jamgʻarmasi) tashkil etishi;

bunda:

Investitsiya jamgʻarmasiga Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi 50 million AQSH dollari va “Asakabank” AJ 50 million AQSH dollari miqdorida mablagʻlar kiritishi;

Investitsiya jamgʻarmasiga farmatsevtika yoʻnalishidagi ilmiy- amaliy va investitsiya loyihalarida ulush bilan ishtirok etishga ruxsat berilishi;

Investitsiya jamgʻarmasi mablagʻlarini shakllantirish farmatsevtika tarmogʻining investitsiya loyihalari maʼqullanishiga qarab amalga oshirilishi;

Investitsiya jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari Agentlik huzuridagi ilmiy-texnik kengash ekspertizasidan, loyiha doirasidagi import kontraktlari esa “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK tomonidan ekspertizadan oʻtkazilishi;

Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi, “Asakabank” AJ va Agentlik ikki oy muddatda Farmatsevtika tarmogʻining istiqbolli loyihalari investitsiya jamgʻarmasi toʻgʻrisidagi nizomni belgilangan tartibda tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi ilmiy loyihalari hamda farmatsevtika sohasidagi startap loyihalarni inkubatsiya va akseleratsiya dasturlariga kiritish va moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan Ilm- fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasiga ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablagʻlar hisobidan 2030-yilga qadar har yili 20 milliard soʻmgacha mablagʻlar ajratilishini taʼminlashi;

Sogʻliqni saqlash vazirligining donor qoni plazmasidan shartnoma asosida dori vositalarini ishlab chiqarish maqsadida donor qoni plazmasini Sogʻliqni saqlash vazirligi va Agentlikning xulosasi asosida 2027-yil yakuniga qadar Oʻzbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish toʻgʻrisidagi taklifga rozilik berilganligi.

Bunda donor qoni plazmasidan ishlab chiqarilgan dori vositalarining Sogʻliqni saqlash vazirligi ehtiyojidan ortiqcha qismi xorijiy davlatlarga realizatsiya (eksport) qilinishi mumkinligi belgilanganligi;

“Asakabank” AJ (K.Tulyaganov), Agentlik (A.Azizov) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda tashabbuskor tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda 2025-yil 1-iyulga qadar 1-ilovaga muvofiq 5 ta namunaviy dorivor oʻsimliklar plantatsiyalarini tashkil etsin va 2026-yil yakuniga qadar ushbu plantatsiyalarda yetishtirilgan dorivor oʻsimliklarni qayta ishlash loyihalari ishga tushirilishiga koʻmaklashishi;

bunda tashabbuskor tadbirkorlik subyektlariga namunaviy plantatsiyani yaratish va mahsulotni qayta ishlash loyihalarini amalga oshirishda konsultativ yordam koʻrsatib borilishi;

Agentlik huzurida farmatsevtika korxonalari faoliyatiga ilg'or standartlarni tatbiq etish bo'yicha marketing va konsalting xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan "Pharma service" davlat muassasasi tashkil etilishi;

quyidagilar:

a) "Pharma service" davlat muassasasining asosiy vazifalari etib belgilanganligi;

soha korxonalariga farmatsevtika mahsulotlarini ro'yxatdan o'tkazish ishlarida ko'maklashish, milliy va xorijiy standartlarni tatbiq etish ishlarida huquqiy va konsultativ yordam ko'rsatish hamda marketing xizmatlarini amalga oshirishi;

mahalliy korxonalarining farmatsevtika yo'nalishidagi nufuzli xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etishida hamda stendlar tashkil etishida ko'maklashishi;

farmatsevtika tarmog'ini raqamlashtirish ishlarini tashkil etishi;

farmatsevtika korxonalarini loyihalash va qurish ishlari bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatishi;

b) "Pharma service" davlat muassasasining moliyalashtirish manbalari etib belgilanganligi;

Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

ko'rsatiladigan pulli xizmatlardan tushadigan mablag'lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar;

belgilanishicha, dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika, biologik faol qo'shimchalar, dorivor o'simliklar hamda kosmetika mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning statistika ko'rsatkichlari farmatsevtika tarmog'i hisobotida aks ettirilishi;

qo'shimchalar, dorivor o'simliklar hamda kosmetika mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning statistika ko'rsatkichlari farmatsevtika tarmog'i hisobotida aks ettirilishi;

quyidagilar Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasining qo'shimcha manbalari etib belgilanganligi;

import qilinadigan dori vositalariga nisbatan qo'llanadigan bojxona bojining 50 foizi;

farmatsevtika mahsulotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bilan bog'liq xizmatlardan tushadigan mablag'larning 10 foizi;

farmatsevtika faoliyati uchun berilgan litsenziya talablarini, referent narxlarning talab va shartlarini buzganlik uchun tadbirkorlik subyektlaridan undiriladigan jarimalarning 50 foizi;

Agentlikka farmatsevtika sohasini raqamlashtirish bilan bog'liq ishlarni (xizmatlarni) belgilangan tartibda Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirishga ruxsat berilganligi;

quyidagilar:

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining tashkiliy tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq;

Farmatsevtika tarmogʻidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va aholini sifatli dori vositalari bilan taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining va Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatning ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Qishloq xoʻjaligi boʻlimi (A.Xakimov), tuman tibbiyot birlashmasi boʻlimi (O.Qoʻldoshev) manfaatdor idoralar bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-yanvardagi PF–13-son Farmoni talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari J.Raximov hamda tuman hokimning qishloq va suv xoʻjaligi masalalari boʻyicha oʻrinbosari I.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov